Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2016–2019-yillardan buyon O'zbekistonda elektron to'lov tizimi faol rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3945-son qaroriga [1] muvofiq 2018-yilning IV choragida Milliy banklararo protsessing markazi tashkil etildi. 2019-yilning birinchi choragida esa Humo to'lov tizimi ishga tushirildi. Ushbu chakana to'lov tizimining ishga tushirilishi bank kartalari asosida chakana to'lov xizmatlarini ko'rsatishda raqobat muhitini shakllantirishga, iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'lamini sezilarli darajada oshirishga va to'lov tizimlari faoliyati bilan bog'liq risklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzurida xalqaro standartlarga mos Ma'lumotlarni qayta ishlash markazini tashkil

etish bo‘yicha keng ko‘lamli tayyorgarlik ishlari olib borildi. Ushbu davrda mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan xizmatlar ko‘rsatishning o‘sib borish tendensiyasi kuzatila boshladi, buning natijasida mazkur sohaning mamlakatimiz hududlari iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi ham oshdi. Bu holat bizning fikrimizcha, respublika iqtisodiyotining yirik tarmoqlari: bank-moliya, savdo va umumiy ovqatlanish, shuningdek transport va aloqa xizmatlarining qo‘shgan hissasi bilan bog‘liq.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan kechayu kunduz to‘lovlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida 24/7 kun davomida to‘lovlarni amalga oshirishni ta’minlaydigan yangi tezkor to‘lov tizimini joriy etish bo‘yicha pilot loyiha ustida ish boshlandi. Tizim 2020-yilning birinchi choragida ishga tushirilib, unga respublikaning barcha tijorat banklari ulandi. Yana bir muhim hodiysa Big data texnologiyalari yordamida Humo tizimini to‘g‘ri boshqarishingiz mumkin. MasterCard kompaniyasi biznesni bashorat qilish maqsadida 210 dan ortiq mamlakatlardagi 1,5 milliard karta egalarining tranzaksiyalarini tahlil qiladi. Yuqorida qayd etib o‘tilgan mavjud ma’lumotlar tadqiqotlarga bozor talabi tendentsiyalarini kuzatish imkonini beradi, bu esa ko‘plab olimlar va ekspertlar uchun O‘zbekiston bank tizimini tahlil qilishda qimmatli ma’lumotdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy nazariy tahlil va monografik kuzatuvlar asosida bank moliya xizmatlarining raqobat muhitida jadal rivojlanishi va samaradorlikni saqlash masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini, shuningdek, O‘zbekiston hududlari iqtisodiyotidagi ushbu innovatsion o‘zgarishlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini mamlakat moliya-kredit tizimini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda yoritishga qaratilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-maydagi “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida” PF-3750-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining “Aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi 78-sonli qarori bilan tashkil etilgan. Bank missiyasi bo‘lib, asosan, kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, kam ta’minlanganlarni qo‘llab-quvvatlash, hunarmandchilik va kasanachilikni faollashtirish yo‘li bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo‘lishini ta’minlash uchun moliyaviy mablag‘lar berish hisoblanadi.

Banklar o‘z faoliyatini mijozlar talablarini to‘liq qondirish, zamonaviy va raqobatbardosh moliya muassasasiga aylanish, xalqaro kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Banklarda zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- mijozlarga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi va sharoitlarini rivojlantirish;
- korporativ boshqaruvni takomillashtirish;
- moliyaviy boshqaruvni rivojlantirish;
- HR funksiyalarini rivojlantirish;
- biznes-jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish;
- sotuv tarmoqlari va bank mahsulotlarini rivojlantirish.

O‘zbekistonda bugungi kunda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki mijozlari 1493982 nafardan iborat bo‘lib, umumiy kapitali 3666063 mln. so‘mni tashkil etadi, jami 85 ta bank xizmatlari markazlari orqali 8061218 mln. so‘m milliy valyutada kreditlar berilgan va bank foydasi 43,5 mlrd. so‘mni tashkil etadi[1].

“Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialining infratuzilmasi va asosiy ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 01.01.2024-yil holatiga bank filiali mijozlari 12466,0 nafarni tashkil etib, jami 11 ta bank xizmatlari markazlari mavjud. Shu jumladan, Nukus shahrida 1 ta bank xizmatlari ofisi hamda 2 ta Jayxun va Bo‘zatov bank xizmatlari markazi, To‘rtkul tumanida 2 ta To‘rtkul va Bunyodkor bank xizmatlari markazi, Amudaryo tumanida 2 ta Mang‘it va Qipchoq bank xizmatlari markazi, shuningdek Ellikqal’a, Xojayli, Chimboy, Mo‘ynoq tumanlarida 1 tadan hududiy bank xizmatlari markazlari faloiyat yuritmoqda. Be yerda aytish kerakki, yuqorada nomlari qayd etilganlardan Jayxun, Bo‘zatov, Chimboy, Bunyodkor, Qipchoq va Mo‘ynoq kabi bank xizmatlari markazlari 2024-yildan boshlab alohida faoliyat boshlamoqda.

Bank xodimlari umumiy soni 236 nafarni tashkil etib, jami 120506 dona plastik kartalar emissiya qilingan, shundan 55075 dona Uzcard va 65431 dona Humo kartalaridir. Xizmat ko‘rsatuvchi bankomatlar soni 54 ta bo‘lib, savdo terminallari soni 2222 tani tashkil etadi (1-jadval).

1 “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma’lumotlari asosida olingan.

1-jadval. "Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining infratuzilmasi va asosiy ko'rsatkichlari[2]

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 01.01.2020 | 01.01.2021 | 01.01.2022 | 01.01.2023 | 01.01.2024 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Bank infratuzilmasi** | | | | | | |
| **Filiallar** | dona | 5 | 5 | 5 | 5 | 0 |
| **Bank xizmatlari markazi** | dona | 0 | 1 | 3 | 4 | 10 |
| **Bank xizmatlar ofisi** | dona | 0 | 0 | 0 | 0 | 1 |
| **Xodimlar** | soni | 176,0 | 191,0 | 203,0 | 210,0 | 236 |
| **Mijozlar** | soni | 9 596,0 | 10 787,0 | 11 696,0 | 12 183,0 | 12 466,0 |
| **Plastik kartalar, shundan** | dona | 79 856 | 85 624 | 92 038 | 93 036 | 120 506 |
| **Uzcard** | dona | 32 903 | 35 772 | 36 815 | 51 887 | 55 075 |
| **Humo** | dona | 46 953 | 49 852 | 55 223 | 41 149 | 65 431 |
| **Bankomatlar** | soni | 5 | 10 | 18 | 31 | 54 |
| **Savdo terminallar** | dona | 1 456,0 | 1 758,0 | 2 143,0 | 2 185,0 | 2 222,0 |
| **Balans ko'rsatkichlari** | | | | | | |
| **Aktivlar** | mln. so'm | 476 236,0 | 545 698,0 | 612 985,0 | 944 343,0 | 1 094 668,0 |
| **Majburiyatlar** | mln. so'm | 460 982,0 | 522 151,0 | 587 711,0 | 926 302,0 | 1 038 362,0 |
| **Kapital** | mln. so'm | 15 254,0 | 23 547,0 | 25 274,0 | 18 041,0 | 56 306,0 |
| **Daromad** | mln. so'm | 92 356,0 | 101 244,0 | 123 524,0 | 185 657,0 | 227 684,0 |
| **Xarajat** | mln. so'm | 87 551,0 | 90 509,0 | 101 325,0 | 170 638,0 | 224 930,0 |
| **Sof foyda** | mln. so'm | 4 825,0 | 10 735,0 | 22 199,0 | 15 019,0 | 2 753,9 |
| **Rentabellik** | % | 5,2 | 10,6 | 18,0 | 8,1 | 1,2 |

Balans ko'rsatkichlarida 01.01.2024-yil holatiga bank aktivlari 1 094 668,0 mln. so'mni, majburiyatlari 1 038 362,0 mln. so'mni va kapitali 56 306,0 mln. so'mni tashkil etib rentabellik darajasi 1,2 %ni tashkil etmoqda[3].

2-jadval. "Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlar, omonotlar va depozitlar to'g'risida ma'lumot[4]

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 01.01.2020 | 01.01.2021 | **01.01.2022** | **01.01.2023** | **01.01.2024** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Berilgan kreditlar**, shundan | mln. so'm | **115 424,0** | **190 548,0** | **289 547,0** | **515 744,0** | **534 276,0** |
| Kichik biznes | mln. so'm | 56 207,0 | 98 730,0 | 149 324,0 | 209 833,0 | 232 418,0 |
| Chakana biznes | mln. so'm | 35 628,0 | 58 959,0 | 94 756,0 | 151 786,0 | 132 197,0 |
| Ijtimoiy kreditlar | mln. so'm | 23 589,0 | 32 859,0 | 45 467,0 | 154 125,0 | 169 661,0 |
| **Omonatlar**, shundan | mln. so'm | **46 100,0** | **63 350,6** | **79 043,1** | **157 989,4** | **279 137,0** |
| Talab qilib olinguncha | mln. so'm | 356,0 | 475,6 | 607,1 | 579,4 | 31 771,0 |
| Jamg'arma va muddatli omonotlar | mln. so'm | 45 744,0 | 62 875,0 | 78 436,0 | 157 410,0 | 247 366,0 |
| **Depozitlar**, shundan | mlrd. so'm | **82,6** | **95,1** | **143,1** | **233,7** | **405,7** |
| Jismoniy shaxslarning depozitlari | mlrd. so'm | 35,5 | 48,6 | 79,0 | 157,4 | 279,1 |
| Yuridik shaxslarning depozitlari | mlrd. so'm | 47,1 | 46,5 | 64,1 | 76,3 | 126,6 |

"Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan 2023-yilda jami berilgan kreditlar 534 276,0 mln. so'mni tashkil etib, shundan:

1. Kichik biznes subyektlariga "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2018-yildagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-sonli qarori[2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2021-yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-sonli qarori[3] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2023-yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga

2 "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
3 "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma'lumotlari asosida olingan.
4 "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarorlari[4] asosida quyidagi shartlarda, jumladan, 18 % stavka bilan 3 yildan 7 yilgacha jismoniy shaxslar uchun 33,0 mln. so‘mgacha va yuridik shaxslar uchun 300,0 mln. so‘mgacha faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib tikuvchilik, issiqxona, bog‘dorchilik, asalarichilik, parrandachilik, o‘zini-o‘zi band qilish (xizmat ko‘rsatish), quyonchilik, baliqchilik, chorvachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun kreditlar oilakredit.uz yagona elektron onlayn platforma orqali to‘liq raqamlashgan holda 232418,0 mln. so‘m kreditlar berilgan (2-jadval).

2. Chakana biznes orqali berilgan kreditlar 132197,0 mln. so‘m.

3. Shuningdek, 169661,0 mln. so‘mlik ijtimoiy kreditlar, shu jumladan:

- “Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020-yildagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862-sonli qarori [5] asosida kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, ularning maxsus sertifikatini olgan yoshlarga 3 yildan 7 yilgacha jismoniy shaxslar uchun 33,0 mln. so‘mgacha va yuridik shaxslar uchun 300,0 mln. so‘mgacha yuqorida qayd etilgan faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib;

- “Hunarmandchilikni rivojlantirish” dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi “Hunarmandchilik faoliyatini qollab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari togrisida”gi PQ-77-sonli qarori[6] asosida 18 oydan 36 oygacha 300,0 mln. so‘mgacha “Hunarmand” uyushmasi a’zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xom ashyo materiallarini xarid qilishga; hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, “usta-shogird” maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olishga, shuningdek, aylanma mablag‘larini to‘ldirishga berilgan kreditlardir.

Mijozlardan turli omonotlarga jami 279137,0 mln. so‘m qabul qilinib, bank depozitlari 405,7 mlrd. so‘mni tashkil etadi, shundan 279,1 mlrd. so‘m jismoniy shaxslarning depozitlari hamda 126,6 mlrd. so‘m yuridik shaxslarning depozitlaridir.

Bank tomonidan tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish uchun yangi tashkil etilayotgan korxonalarni texnologik jihozlash uchun va yuqorida ta’kidlangan maqsadlarda imtiyozli kreditlarning ajratilishi rag‘batlantiruvchi omillar bo‘lmoqda, buning natijasida esa xizmatlar ko‘rsatishning yuqori sur’atlari ta’minlanib hududda yalpi ichki mahsulot ulushi ham ortmoqda (1-rasm).




1-rasm. “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlar, omonotlar va depozitlarning qiyosiy dinamikasi[5]

Endi “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlarning hududiy bank xizmatlari markazlari kesimida taqsimlanishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda hududiy bo‘linmalardan yuqori faollik Nukus shahriga to‘g‘ri kelmoqda. Undan keyingi o‘rinlar To‘rtkul, Mang‘it, Ellikqal’a va Xo‘jayli tumani bank xizmatlari markazlariga to‘g‘ri keladi (3-jadval).

5 “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval. "Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlarning hududiy bank xizmatlari markazlari kesimida taqsimlanishi[6]

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 01.01.2020 | 01.01.2021 | **01.01.2022** | **01.01.2023** | **01.01.2024** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Berilgan kreditlar**, jami | mln. so'm | **115 424,0** | **190 548,0** | **289 547,0** | **515 744,0** | **534 276,0** |
| **Nukus** | mln. so'm | 50 557,0 | 78 469,6 | 126 790,3 | 205 813,5 | 225 132,0 |
| jismoniy shaxslarga | mln. so'm | 20 466,0 | 35 856,0 | 52 879,0 | 82 954,0 | 95 616,0 |
| yuridik shaxslarga | mln. so'm | *30 091,0* | *42 613,6* | *73 911,3* | *122 859,5* | *129 516,0* |
| **To'rtkul** | mln. so'm | 29 744,0 | 49 090,3 | 74 568,2 | 132 806,0 | 99 618,0 |
| jismoniy shaxslarga | mln. so'm | *12 850,0* | *19 875,0* | *31 452,0* | *58 965,0* | *32 615,0* |
| yuridik shaxslarga | mln. so'm | *16 894,0* | *29 215,3* | *43 116,2* | *73 841,0* | *67 003,0* |
| **Ellikqal'a** | mln. so'm | 12 425,0 | 25 513,7 | 31 160,3 | 55 496,5 | 67 575,0 |
| jismoniy shaxslarga | mln. so'm | *5 652,0* | *9 865,0* | *12 854,0* | *18 745,0* | *29 850,0* |
| yuridik shaxslarga | mln. so'm | *6 773,0* | *15 648,7* | *18 306,3* | *36 751,5* | *37 725,0* |
| **Mang'it** | mln. so'm | 10 852,0 | 22 916,7 | 27 320,1 | 68 717,9 | 80 280,0 |
| jismoniy shaxslarga | mln. so'm | *4 756,0* | *8 963,0* | *11 966,0* | *32 654,0* | *35 652,0* |
| yuridik shaxslarga | mln. so'm | *6 096,0* | *13 953,7* | *15 354,1* | *36 063,9* | *44 628,0* |
| **Xo'jayli** | mln. so'm | 11 846,0 | 14 557,7 | 29 708,1 | 52 910,1 | 61 671,0 |
| jismoniy shaxslarga | mln. so'm | *5 238,0* | *6 541,0* | *11 745,0* | *23 658,0* | *27 859,0* |
| yuridik shaxslarga | mln. so'm | *6 608,0* | *8 016,7* | *17 963,1* | *29 252,1* | *33 812,0* |

Bu o'z navbatida, bir qator obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq bo'lib, qishloq joylardagi mijozlarning shahar markazlaridagi bank xizmatlaridan ko'proq foydalanayotganligini ko'rsatadi. Shu asosda, ularga tumanlarda zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etishni faollashtirish va mijozlarga o'zlari istiqomat qiladigan joylardagi bank xizmatlari markazlaridan ustuvor foydalanishga chaqirishda tushuntirish ishlarini olib borishni kuchaytirish bilan bo'g'liq.

4-jadval. "Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filialida depozitlarning hududiy bank xizmatlari markazlari bo'yicha taqsimlanishi7

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 01.01.2020 | **01.01.2021** | **01.01.2022** | **01.01.2023** | **01.01.2024** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Depozitlar**, jami | mlrd. so'm | **82,6** | **95,1** | **143,1** | **233,7** | **405,7** |
| **Nukus** | mlrd. so'm | 23,9 | 27,6 | 42,5 | 95,6 | 168,3 |
| jismoniy shaxslarga | mlrd. so'm | *12,2* | *14,5* | *25,9* | *59,1* | *93,2* |
| yuridik shaxslarga | mlrd. so'm | *11,7* | *13,1* | *16,6* | *36,5* | *75,1* |
| **To'rtkul** | mlrd. so'm | 17,2 | 18,5 | 28,4 | 42,8 | 73,8 |
| jismoniy shaxslarga | mlrd. so'm | 6,5 | 8,1 | 12,5 | 27,3 | 48,9 |
| yuridik shaxslarga | mlrd. so'm | 10,7 | 10,4 | 15,9 | 15,5 | 24,9 |
| **Ellikqal'a** | mlrd. so'm | 13,6 | 15,0 | 27,8 | 39,2 | 57,1 |
| jismoniy shaxslarga | mlrd. so'm | 5,4 | 6,8 | 12,2 | 23,9 | 42,3 |
| yuridik shaxslarga | mlrd. so'm | 8,2 | 8,2 | 15,6 | 15,3 | 14,8 |
| **Mang'it** | mlrd. so'm | 15,8 | 18,5 | 22,6 | 35,1 | 53,1 |
| jismoniy shaxslarga | mlrd. so'm | 6,3 | 8,1 | 13,5 | 30,1 | 46,2 |
| yuridik shaxslarga | mlrd. so'm | 9,5 | 10,4 | 9,1 | 5,0 | 6,9 |
| **Xo'jayli** | mlrd. so'm | 12,1 | 15,5 | 21,8 | 21,0 | 53,4 |
| jismoniy shaxslarga | mlrd. so'm | 5,1 | 11,1 | 14,9 | 17,0 | 48,4 |
| yuridik shaxslarga | mlrd. so'm | 7,0 | 4,4 | 6,9 | 4,0 | 5,0 |

6 "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
7 "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining https://mkbank.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ko‘rinib turibdiki, 4-jadval ma’lumotlari ham yuqorida bu borada ta’kidlab o‘tilgan fikr mulohazalarimizni isbotlaydi. Bizning fikrimizcha, Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy sust rivojlangan Bo‘zatov, Taxtako‘pir va Mo‘ynoq kabi tumanlarida bank xizmatlari ko‘rsatishni faollashtirishda mijozlarni rag‘batlantiruvchi omillar orqali mavjud iqtisodiy kontingentni zavq etish muhim deb hisoblaymiz. Ayniqsa hududda qishloq joylarda onlayn bank xizmatlarini ko‘rsatish tarkibini kengaytirish va bu borada mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda zamonaviy innovatsion yondashuvlardan foydalanish kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bank sektorining asosiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘smoqda. Ushbu o‘sishga sohada raqamli texnologiyalarning transformatsiyasi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘z navbatida, O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilish hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilgani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmonida yaqqol dalolat beradi. Chunki 2020-yilda mamlakatdagi barcha banklarda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi boshlandi. Bunda asosiy e’tibor banklarning kapital va resurs bazasini, shuningdek, rentabelligini oshirishga qaratildi. Bank sohasida amalga oshirilayotgan bu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad esa tijorat banklarini mijozga yo‘naltirilgan ishlashga o‘rgatishdan iborat bo‘ldi. Ushbu davrda “yalpi ichki mahsulotga nisbatan xizmatlar ko‘rsatishning o‘sib borish tendentsiyasi kuzatila boshlandi. Bu holat, bizningcha, respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, kommunal, moliya va boshqalarning hissasi bilan bog‘liq. Eng muhimi, avvallari asosan davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar asta-sekin xususiy bozor xarakteriga ega bo‘ldi” [7].

Tadqiqotda “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlarning hududiy bank xizmatlari markazlari kesimida taqsimlanishi ko‘rib chiqilganida, hududiy bank bo‘linmalaridan yuqori faollik Nukus shahriga to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinlar To‘rtkul, Mang‘it, Ellikqal’a va Xo‘jayli tumani bank xizmatlari markazlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, yuqorada nomlari qayd etilganlardan tashqari Jayxun, Bo‘zatov, Chimboy, Bunyodkor, Qipchoq va Mo‘ynoq kabi bank xizmatlari markazlari 2024-yildan boshlab alohida faoliyat yuritayotganligini aytish lozim.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, hozirgi kunda mamlakatimiz hududlarining borishi qiyin bo‘lgan olis chekka tumanlarida naqd pulsiz hisob-kitob tizimi chakana savdo va aholiga xizmat ko‘rsatish sohasida hamon yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada aholining naqd pulga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ular hudud markazlaridagi banklarga kelishga majbur bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha bank xizmatlari sohasini rivojlantirishda tijorat banklari bo‘lim va filiallari faolligini oshirish lozim deb hisoblaymiz. Bir vaqtning o‘zida u sohada raqobatning kuchayishiga, moliyaviy xizmatlar turining kengayishi va sifatining yaxshilanishiga yordam beradi.

Demak bugungi kunda O‘zbekiston hududlarida bank xizmatlari va servisidan foydalanishni yanada jadal rivojlantirishni ta’minlash, zamonaviy bank xizmatlari bozorini yaratish, xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilishning oqilona infratuzilmasini shakllantirish, mamlakatimizda aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni ta’minlashda davlat dasturlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018-yildagi PQ-3945-son “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2018 yildagi PQ-3777-sonli, “Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi qarori. https://www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2021 yildagi PQ-55-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2023 yildagi PQ-39-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi PQ-4862-sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://www.lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi PQ-77-sonli “Hunarmandchilik faoliyatini qollab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari togrisida”gi qarori. https://www.lex.uz.
7. Musagaliev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. – Pages: 221-226.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.